

MTT DIREKTOR O‘RINBOSARINING BOSHQARUV VA LIDERLIK QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani
6-Son DMTT direktor o‘rinbosari
Mamatqulova Dilfuza Akromovna*

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktor o‘rinbosarining boshqaruv va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, rahbarning kasbiy kompetentligi, innovatsion boshqaruv faoliyati, kommunikativ madaniyati hamda pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Direktor o‘rinbosarining liderlik salohiyatini rivojlantirish orqali ta‘lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические основы развития управленческих и лидерских компетенций заместителя директора дошкольной образовательной организации. Освещены вопросы профессиональной компетентности руководителя, инновационного управления, коммуникативной культуры и эффективной организации педагогического процесса. Научно обосновано значение лидерского потенциала заместителя директора в повышении качества образования и эффективности управления.

Калит so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, direktor o‘rinbosari, liderlik, boshqaruv kompetensiyasi, pedagogik mahorat, innovatsion faoliyat, kommunikativ kompetentlik, ta‘lim sifati, refleksiv yondashuv, pedagogik boshqaruv.


Ключевые слова: дошкольное образование, заместитель директора, лидерство, управленческая компетенция, педагогическое мастерство, инновационная деятельность, коммуникативная компетентность, качество образования, рефлексивный подход, педагогическое управление.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda rahbar kadrlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, direktor o‘rinbosarining boshqaruv faoliyati, liderlik qobiliyati va pedagogik kompetensiyasi ta‘lim muassasasining samarali faoliyat yuritishida muhim omil sanaladi. Zamonaviy ta‘lim tizimi rahbarlardan nafaqat ma‘muriy boshqaruvni, balki innovatsion fikrlash, jamoani ruhlantirish, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash va strategik rejalashtirish kabi ko‘nikmalarni ham talab qilmoqda.

Shu bois direktor o‘rinbosarining liderlik salohiyatini rivojlantirish hamda boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Liderlik - bu guruhning alohida a‘zolari xatti-harakatlarining psixologik xarakteristikasi, rahbarlik esa guruhdagi munosabatlarning ijtimoiy xarakteristikasi va birinchi navbatda boshqaruv va bo‘ysunish rollarini taqsimlash nuqtai nazaridir. Liderlikdan farqli o‘laroq, rahbarlik jamiyat tomonidan tartibga solinadigan huquqiy jarayon sifatida faoliyat yuritadi. Biroq, ushbu farqlarga qaramay, rahbar ham, lider ham tashkilot xodimlarini rag‘batlantirish, ularni muayyan vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish, ushbu vazifalarni hal qilish vositalariga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq bir xil turdagi muammolarni hal qilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish, ta‘lim sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarlari, xususan, direktor o‘rinbosarining liderlik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki direktor o‘rinbosari ta‘lim jarayonini tashkil etish, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda yetakchi bo‘g‘in hisoblanadi.



Lider - odamlarni ruhlantiradi va xodimlarda g‘ayrat uyg‘otadi, ularga kelajak haqidagi tasavvurlarini beradi va ularning yangi sharoitga moslashishiga, o‘zgarish bosqichidan o‘tishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshqaruv va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida rahbar shaxs nafaqat boshqaruvchi, balki pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi, jamoani birlashtiruvchi va innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi lider sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli direktor o‘rinbosarining boshqaruv va liderlik salohiyatini rivojlantirish muayyan pedagogik asoslar orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim tizimida shaxsining liderlik fazilatlarini tashkilotning muvaffaqiyati va ta‘limiy faoliyat samaradorligining asosiy


omillaridan biridir. Zamonaviy direktor nafaqat boshqaruvchi, balki jamoani ilhomlantiruvchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi, bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi lider bo'lishi zarur.



Har qanday rahbar yangilik kiritishda–

bu printsiptial jihatdan yangi tarkibiy qismni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof – muhitda sifatli o'zgarishlar ro'y beradi. Texnologiya, o'z navbatida, ma'lum bir biznesda, hunarmandchilikda yoki san'atda

qo'llaniladigan turli xil texnikalar to'plamidir. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy komponentlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quv jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun bolalar bog'chasidagi pedagogik jamoalar boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan farqli o'laroq, bolalarni tarbiyalash va intellectual rivojlantirishning eng yangi modellarini ishlab chiqadilar. O'qituvchilar kasbiy faoliyatlarida uslubiy vositalar, usullardan foydalanadilar va qabul qilingan modelga to'la mos keladi. Kelajagimizni shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanishi, aynan shu davrdagi bolalarni yaxshi bilimlar bilan ulg'aytira olishimiz bilan bog'liq ekan biz bu borada befarq bo'lolmaymiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga hayotimizdagi eng ilg'or o'qituvchi, tarbiyachilarni joylashtirimiz va har bir ta'lim beruvchilarni tanlab talablarga javob bera oladigan kadrlarnigina olishimiz zarur. Shundagina biz bu sohada ilg'or natijalarga ega bo'lishimizga ishonaman. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tobora ko'proq foydalanilmoqda va ularni amalga oshirish natijasi o'n yildan ko'proq vaqt davomida paydo bo'ladi. Bugungi kunga qadar keng Vatanimizdagi bolalar bog'chalarida qo'llaniladigan yuzdan ortiq ta'lim texnologiyalari mavjud.



Direktor o‘rinbosarining liderlik salohiyatini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv tahlil, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda rahbarning kasbiy mobiligi, adaptiv boshqaruv qobiliyati va pedagogik kreativligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki samarali lider pedagogik jamoani umumiy maqsad sari yo‘naltira oladi, motivatsion muhit yaratadi va ta‘lim sifatini monitoring qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, direktor o‘rinbosarining boshqaruv faoliyatida korporativ hamkorlik, pedagogik refleksiya va innovatsion menejment mexanizmlaridan foydalanish ta‘lim-tarbiya jarayonining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi, jamoada sog‘lom psixologik muhit shakllanadi hamda tarbiyalanuvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktor o‘rinbosarining boshqaruv va liderlik qobiliyatlarini takomillashtirish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim talablaridan biridir. Rahbarning kasbiy kompetensiyasi, innovatsion yondashuvi, kommunikativ madaniyati hamda emotsional intellekti ta‘lim sifati va boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Direktor o‘rinbosarida liderlik salohiyatini rivojlantirish orqali pedagogik jamoada hamkorlik muhiti shakllanadi, innovatsion faoliyat faollashadi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ortadi. Shu sababli rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida boshqaruv va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, zamonaviy rahbar – bu nafaqat boshqaruvchi, balki o‘zgarmas lider, pedagogik jarayonlar innovatori va jamoani birlashtiruvchi shaxsdir. Ularning sifatli boshqaruvi orqali maktabgacha ta‘lim

tizimi samaradorligi oshib, kelajak avlod tarbiyasida yuqori natijalarga erishish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi PQ-5144-son qarori.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova Maktabgacha pedagogika T-“Ma‘naviyat” 2018y.
3. Tretyakov P.I. "Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010y.
4. Рахматуллаева, П. М., & Махамова, М. А. (2022). Yoshlar ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rni yoxud ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam. Central Asian Research Journal
5. Karimova N.Q “Maktabgacha ta’lim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari”3-4B(2021)